



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 19 - iyun

277-10-0-Q/23

Toshkent viloyati hokimiligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi 77-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash to'g'risida

Hududlarda yoqilg'i-energiya resurslaridan samarali foydalanish, ularni talon-toraj qilish holatlarining oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, yoqilg'i-energetika sohasida to'planib qolgan, anomal sovuq davrida tabiiy gaz va elektr energiyasi taqchilligi yuzaga kelishi oqibatda, aholining jiddiy va haqli e'tirozlariga sabab bo'ldi.

Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini kuchaytirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi 77-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan qaror qilaman:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi 77-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmon bilan quydagilar belgilanganligi:

yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish ustidan davlat nazoratining ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish, ularni talon-toraj qilish holatlarining oldini olish va ularga barham berish, bu borada davlat nazoratini kuchaytirish orqali qonun talablarini buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlash;

yoqilg'i-energiya resurslarini ishlab chiqarish, qayta ishlash (qazib olish), uzatish (tashish), saqlash, taqsimlash va iste'mol qilish, ularni miqdor jihatidan saqlash jarayoniga "raqamli energonazorat" tizimini to'liq joriy etish;

yoqilg'i-energetika sohasidagi qonunchilik hujjatlarining, dasturlar hamda

loyihalarda belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va to'liq ijro etilishini ta'minlash, sohada huquqni qo'llashning yagona amaliyotini shakllantirish;

yoqilg'i-energiya resurslarining sarflanishini, sifatini doimiy o'rganib borish, qurilmalarning yaroqlilik holatini tekshirish;

yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanishning belgilangan talablariga qat'iy rioya qilinishi ustidan kunlik nazorat o'rnatish inobatga olinsin.

3. Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha viloyat shtabi 1-ilovaga muvofiq;

Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha tuman (shahar) shtablari 2-ilovaga muvofiq namunaviy tarkibda tasdiqlansin.

4. Viloyat shtabining asosiy vazifalari etib quydagilar belgilansin:

tuman (shahar) shtablari olib borayotgan ishlarini kunlik monitoring qilib borish;

yoqilg'i-energetika sohasidagi qonunchilik hujjatlarining, dasturlar hamda loyihalarda belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va to'liq ijro etilishini muntazam nazorat qilish;

yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va talon-toraj qilish holatlarining oldini olish va ularga barham berish choralarini ko'rish;

shtablar faoliyati natijalarini muntazam ravishda tanqidiy muhokama qilib borish va ularning ishini takomillashtirish bo'yicha tizimli choralar ko'rish;

iste'mol qilingan yoqilg'i-energiya resurslari uchun qarzдорlikni undirish to'g'risidagi ijro hujjatlarini majburiy ijro etish yuzasidan kunlik nazorat o'rnatish;

yoqilg'i-energetika sohasidagi qonunchilik hujjatlarining huquqni qo'llash amaliyoti bilan uyg'unligini, ulardagi korrupsiyaviy omillarni muntazam ravishda tahlil qilish asosida ushbu sohani "korrupsiyasiz soha"ga aylantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda Respublika ShTABga kiritib borish.

5. Shahar va tuman shtablariga:

Hududlarda olib borilayotgan ishlar bo'yicha kunlik hisobotlarni viloyat shatabiga taqdim etib borish;

yoqilg'i-energetika sohasidagi qonunchilik hujjatlarining, dasturlar hamda loyihalarda belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va to'liq ijro etilishini tashkil etish;

yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va talon-toraj qilish holatlarining oldini olish va ularga barham berish choralarini ko'rish;

shtablar faoliyati natijalarini muntazam ravishda tanqidiy muhokama qilib borish va ularning ishini takomillashtirish bo'yicha tizimli choralar ko'rish;

iste'mol qilingan yoqilg'i-energiya resurslari uchun qarzдорlikni undirish to'g'risidagi ijro hujjatlarini majburiy ijro etilishini tashkil etib borish;

yoqilg'i-energetika sohasidagi qonunchilik hujjatlarining huquqni qo'llash amaliyoti bilan uyg'unligini, ulardagi korrupsiyaviy omillarni muntazam ravishda tahlil qilib borish ushbu sohani "korrupsiyasiz soha"ga aylantirish bo'yicha takliflar kiritish;

elektr, gaz uzatish va gaz taqsimlash tarmoqlariga noqonuniy ulanish, yoqilg'i-energiya resurslarini talon-toraj qilish va noqonuniy iste'mol qilishning boshqa holatlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish;

bevosita iste'molchilar tomonidan foydalanilgan hamda tegishli hududlar chegarasidagi tarmoqlarga yetkazib berilgan yoqilg'i-energiya resurslari hajmi o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash;

yoqilg'i-energiya resurslari iste'molchilarining debitorlik va kreditorlik qarzlarini nazorat qilish.

6. "HET" AJ Toshkent hududiy filiali (D.Abdurazoqov), "Hududgaz Toshkent"GTF (J.Muxamedov), elektr inspeksiyasi (B.Zakirov), gaz inspeksiya (M.Yakubov), shahar va tuman hokimliklariga farmon bilan yoqilg'i-energiya resurslaridan oqilona foydalanishda jamoatchilik nazoratini o'rnatish maqsadida 2023-yil 1-sentabrdan boshlab shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

aholi tomonidan Energetika vazirligining Internet tarmog'idagi maxsus axborot tizimiga yuborilgan elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar haqidagi fotosuratlar va videoyozuvlar belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi;

huquqbuzarliklar to'g'risidagi fotosuratlar va videoyozuvlarni yuborgan shaxslar pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi;

huquqbuzarlik holatlari to'g'risida yuborilgan fotosuratlar va (yoki) videoyozuvlardagi huquqbuzarlarning shaxsini aniqlash Energetika vazirligining hududiy organlari so'roviga asosan ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilishini inobatga olib, o'rnatilgan tartibda amalga oshirilishini ta'minlasin.

7. Mazkur Qarorda belgilangan topshiriqlarning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib viloyat prokurori Sh.Raximov hamda "HET" AJ Toshkent hududiy filiali (D.Abdurazoqov), "Hududgaz Toshkent"GTF

(J.Muxamedov) belgilansin.

8. Mazkur Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish viloyat prokurori Sh.Raximov viloyat hokimi o'rinbosari B. Meliyevlar zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev

Toshkent viloyat hokimining
2023-yil 19-iyundagi
277-10-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini samarali
tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha viloyat shtabining**

TARKIBI

Sh.J. Raximov	— Viloyat prokurori, <i>Hududiy shtab rahbari</i>
N.A. Raximov	— Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi boshlig'i
T.T. Aripov	— Viloyat IIBB boshlig'i
A.F. Babayev	— Viloyat prokuraturasi Yoqilg'i-energetika sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi boshlig'i.
M.N. Ruzmatov	— Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig'i
O.R. Bozorov	— Majburiy ijro byurosi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig'i
B.T. Zakirov	— "O'zenergoinspeksiya" viloyat bo'lim boshlig'i
M.J. Yakubov	— "O'zneftgazinspeksiya" Toshkent hududiy boshqarmasi boshlig'i
R.I. Rayimov	— Viloyat Davlat soliq boshqarmasi boshlig'i
D.O'. Abdurazzoqov	— "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Toshkent hududiy filiali direktori
J.D. Muxamedov	— "Hududgaz Toshkent" GTF rahbari
O'.E. Axmedov	— "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ Toshkent Magistral elektr tarmoqlari filali bosh muhandisi
Sh.Kamalov	— "Toshkent magistral gaz quvurlari" boshqarmasi boshlig'i